



**PRACTICAL MECHANISMS FOR ENSURING INFORMATION AND
PSYCHOLOGICAL SECURITY IN POLITICAL COMMUNICATION
PROCESSES**

Siddiqov Asroriddin Erkinboy o'g'li

4th-year Student, Political Science Program Faculty of Social Sciences

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: This article provides an in-depth analysis of practical mechanisms for ensuring informational and psychological security in political communication processes. In the context of the rapid development of the global information space, the expansion of digital platforms, and the direct impact of social networks on political processes, the issue of informational and psychological security is gaining relevance. The study scientifically studies the mechanisms of manipulative influences, disinformation, fake news, and psychological pressure that arise in the process of information exchange between subjects of political communication. The results of the study show that ensuring informational and psychological security in political communication processes requires a comprehensive approach, in which, along with technological protection tools, strengthening socio-psychological stability is an important factor.

Keywords: political communication, information and psychological security, disinformation, media literacy, digital platforms, manipulation, social networks.

**SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA JARAYONLARIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING AMALIY MEXANIZMLARI.**

Siddiqov Asroriddin Erkinboy o'g'li

Mirzo Ulug`bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Unversiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Global axborot makonining tez sur'atlarda rivojlanishi, raqamli platformalarning kengayishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy jarayonlarga bevosita ta'siri sharoitida axborot-psixologik xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda siyosiy kommunikatsiya subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayonida yuzaga keladigan manipulyativ ta'sirlar, dezinformatsiya, feyk yangiliklar va psixologik bosim mexanizmlari ilmiy asosda o'rganiladi. Tadqiqot natijalari siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash kompleks yondashuvni talab etishini, bunda texnologik himoya vositalari bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlash muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: siyosiy kommunikatsiya, axborot-psixologik xavfsizlik, dezinformatsiya, media-savodxonlik, raqamli platformalar, manipulyatsiya, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация: В данной статье представлен углубленный анализ практических механизмов обеспечения информационно-психологической безопасности в процессах политической коммуникации. В контексте стремительного развития глобального информационного пространства, расширения цифровых платформ и прямого влияния социальных сетей на политические процессы вопрос информационно-психологической безопасности приобретает все большую актуальность. В исследовании научно изучаются механизмы манипулятивного воздействия, дезинформации, фейковых новостей и психологического давления, возникающие в процессе обмена информацией между субъектами политической коммуникации. Результаты исследования показывают, что обеспечение информационно-психологической безопасности в процессах политической коммуникации требует комплексного подхода, в котором наряду с технологическими средствами защиты важным фактором является укрепление социально-психологической стабильности.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Ключевые слова: политическая коммуникация, информационная и психологическая безопасность, дезинформация, медиаграмотность, цифровые платформы, манипуляция, социальные сети.

Kirish. O'zbekistonda axborotlashgan jamiyatning shakllanish sur'atlari bevosita siyosiy kommunikatsiya maydonining kengayishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida internet foydalanuvchilari soni keskin ortdi. 2024-2025 yillarga kelib, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshdi, bu esa aholining deyarli barcha faol qatlami virtual axborot makoniga integratsiyalashganini ko'rsatadi. Biroq, bu ko'rsatkich nafaqat imkoniyatlarni, balki axborot-psixologik xavflarni ham barobariga oshirmoqda.

Xususan, kiber-jinoyatchilik va raqamli makondagi huquqbuzarliklar dinamikasi xavotirli tus olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Kiberxavfsizlik markazi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yilda kiber-jinoyatlar soni bir necha barobarga ortgan. Agar 2020-yilda ushbu turdagi jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning kichik qismini tashkil etgan bo'lsa, hozirda ularning salmog'i, ayniqsa bank kartalari bilan bog'liq firibgarliklar va ijtimoiy muhandislik (social engineering) usullari orqali amalga oshirilayotgan xurujlar soni o'n minglab holatlarni tashkil etmoqda.

Siyosiy nuqtai nazardan qaraganda, ushbu raqamlar ortida faqat iqtisodiy zarar emas, balki jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga putur yetkazish xavfi ham yotibdi. Axborot-psixologik xurujlar ko'pincha quyidagi raqamli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

Feyk kanallar va botlar: Muhim siyosiy qarorlar qabul qilinishi arafasida ijtimoiy tarmoqlarda sun'iy ravishda "negativ rezonans" hosil qiluvchi bot-fermalarning faollashishi;

Kiber-trolling: Davlat xizmatchilari va jamoatchilik faollariga nisbatan uyushtirilgan psixologik bosimlar;





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Axborot manipulyatsiyasi: Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish orqali aholida tushkunlik va norozilik kayfiyatini uyg'otishga urinishlar.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston segmentidagi ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan negativ xabarlarining salmoqli qismi tashqi va ichki manipulyativ manbalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa, milliy xavfsizlik konsepsiyasida axborot-psixologik himoyani nafaqat texnik bloklash, balki intellektual tahlil va jamiyatning media-savodxonligini oshirish orqali amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shunday qilib, raqamli makondagi jinoyatchilikning o'sish dinamikasi shunchaki texnik muammo emas, balki siyosiy barqarorlikni saqlashning strategik masalasidir. Bu jarayonda davlat, jamiyat va xususiy sektorning hamkorlikdagi "Gibrid himoya" tizimini yaratish kechiktirib bo'lmas vazifaga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda O'zbekistonda siyosiy kommunikatsiya jarayonlari, axborot makoni va axborot-psixologik xavfsizlik masalalari dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida axborot oqimining tezlashuvi, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi siyosiy jarayonlarda psixologik ta'sir mexanizmlarini kuchaytirdi. O'zbek olimlari bu jarayonni turli nuqtai nazardan – psixologik, kommunikativ va mafkuraviy yondashuvlarda tahlil qilgan.

O'zbek tadqiqotchilari axborot-psixologik xavfsizlikni shaxs va jamiyat ongini tashqi salbiy axborot ta'siridan himoya qilish holati sifatida izohlaydi. Masalan, Yusupova Yo.M. siyosiy diskurs va kommunikativ yondashuvni o'rganib, axborot makonida yuzaga keladigan "axborot urushi", "mafkuraviy qarama-qarshilik" kabi hodisalar shaxs psixologiyasiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv siyosiy kommunikatsiyada axborot xavfsizligini ta'minlash zaruratini asoslaydi. Yusupova Yo.M. o'z tadqiqotlarida siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik ta'sirning kuchayib borayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy axborot makonida siyosiy diskurs nafaqat ma'lumot yetkazish vositasi, balki jamiyat





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

ongiga ta'sir qiluvchi kuchli psixologik instrumentga aylanib bormoqda. Olimaning qayd etishicha, "axborot urushi" sharoitida turli g'oyaviy oqimlar shaxsning qarashlari va qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.[1] Menimcha, Yusupova Yo.M. tomonidan ilgari surilgan bu fikrlar bugungi global axborotlashuv davrida juda dolzarbdir. Chunki hozir ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali axborot juda tez tarqalmoqda va har doim ham uning ishonchliligini tekshirish imkoniyati bo'lavermaydi. Shu sababli siyosiy axborotlar ko'pincha odamlarning hissiyotiga ta'sir qilib, ularning fikrini shakllantirish yoki o'zgartirishga xizmat qilmoqda.

Shaxsiy fikrimcha, bunday sharoitda eng muhim masala - fuqarolarning axborot savodxonligini oshirishdir. Agar inson har bir siyosiy xabarni tahlil qilib, uning manbasi va maqsadini tushunishga harakat qilsa, u tashqi psixologik ta'sirlarga kamroq beriladi. Demak, Yusupova Yo.M. fikrlarini davom ettirgan holda aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash nafaqat davlat yoki OAV vazifasi, balki har bir fuqaroning shaxsiy mas'uliyati ham hisoblanadi.

Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborotning emotsional va psixologik ta'siri muhim o'rin tutadi. O'zbek olimlari siyosiy nutq, ommaviy axborot vositalari va internet platformalarini psixologik ta'sir vositasi sifatida o'rganadi. G. Komilovning siyosiy diskursga oid tadqiqotida siyosiy shaxs nutqining emotsional-kommunikativ strategiyalari, metaforalar va baholovchi birliklar orqali auditoriyaga psixologik ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Bu yondashuv siyosiy kommunikatsiyada axborotning faqat mazmuni emas, balki uning ifoda uslubi ham muhim ekanligini ko'rsatadi. G. Komilova o'z tadqiqotlarida siyosiy diskursning lingvistik va emotsional-kommunikativ jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, siyosiy nutq oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki auditoriya ongiga ta'sir qiluvchi murakkab kommunikativ tizimdir. Olimaning ta'kidlashicha, siyosiy yetakchilar nutqida qo'llaniladigan metaforalar, baholovchi so'zlar va emotsional ifodalar tinglovchining qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.[2]





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Menimcha, G. Komilova tomonidan ilgari surilgan bu yondashuv siyosiy kommunikatsiyaning asl mohiyatini to'g'ri ochib beradi. Chunki amalda ham siyosiy nutqlarda faqat faktlar emas, balki ularning qanday ifodalanishi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ko'pincha bir xil mazmundagi xabar turli emotsional ohangda berilganda, auditoriya uni turlicha qabul qiladi. Shunday ekan bugungi axborot oqimi juda tezlashgan davrda siyosiy nutqlarning emotsional ta'siri yanada kuchayib bormoqda. Shu sababli fuqarolar nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi kerak. Aks holda, emotsional jihatdan kuchli ta'sir qiluvchi siyosiy xabarlar insonlarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ko'plab o'zbek tadqiqotlarida yoshlar axborot-psixologik xavfsizlikning eng zaif guruhi sifatida ko'rsatiladi. S. Usmonov va D. Meliboyev tadqiqotida o'smirlar ongiga ommaviy madaniyat va internet axborotlarining salbiy ta'siri muhokama qilinadi. Mualliflar axborot immunitetini shakllantirish zarurligini asoslaydi S. Usmonov o'z tadqiqotlarida o'smirlar va yoshlar orasida axborot-psixologik xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, zamonaviy axborot oqimlari, ayniqsa internet va ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Olim bu jarayonda ayrim axborotlarning mazmuni yoshlarning qadriyatlarini, xulq-atvori va dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydi.[3]

Menimcha, S. Usmonovning bu fikrlari bugungi real holat bilan juda mos keladi. Chunki hozir yoshlar kun davomida juda ko'p axborot manbalari bilan to'qnash kelmoqda va ularning barchasi ham tarbiyaviy yoki ishonchli emas. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan ayrim kontentlar yoshlarning fikrlashiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak bu muammoni faqat cheklash yoki taqiqlash orqali hal qilib bo'lmaydi. Eng to'g'ri yo'l - yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatishdir. Agar yoshlar har bir axborotning maqsadini va manbasini tushuna olsa, ular salbiy ta'sirlarga kamroq beriladi. Shu jihatdan Usmonovning yondashuvi axborot-





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

psixologik xavfsizlikni ta'minlashda profilaktik va tarbiyaviy choralar muhimligini ko'rsatadi.

Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash muammosi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Ushbu masalaga oid tadqiqotlar asosan siyosiy kommunikatsiya nazariyalari, axborot xavfsizligi, media ta'siri va psixologik manipulyatsiya kabi yo'nalishlar kesimida shakllangan.

Avvalo, siyosiy kommunikatsiya nazariy asoslari G. Lassuell, H. Lassuell va J. Habermas kabi olimlarning ishlari bilan bog'liq bo'lib, ular siyosiy axborot almashinuvi jarayonida kommunikatsiyaning ijtimoiy funksiyalarini yoritib bergan. Ayniqsa, J. Habermasning "jamoatchilik sohasi" konsepsiyasi siyosiy muhokama jarayonlarida axborotning ochiqligi va manipulyatsiyadan himoya qilish masalasini ilmiy asosda tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[4] Shaxsiy fikrimcha, Habermasning ushbu konsepsiyasi hozirgi raqamli axborot muhitida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, u zamonaviy sharoitda ayrim jihatlarda murakkablashgan. Chunki internet va ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik sohasini kengaytirib yubordi, lekin shu bilan birga u yerda axborot sifati, manipulyatsiya va dezinformatsiya muammolari ham keskin oshdi. Natijada "erkin muhokama maydoni" ideal holatda emas, balki ko'pincha algoritmlar, reklama va siyosiy texnologiyalar ta'siriga tushib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Habermas g'oyasi bugungi kunda qayta talqin qilinishi kerak deb o'ylayman. Ya'ni jamoatchilik sohasi faqat erkin fikr almashinuvi maydoni emas, balki axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari bilan mustahkamlangan tizim bo'lishi zarur. Aks holda, fuqarolarning ongiga ta'sir qiluvchi manipulyativ axborotlar ushbu sohaning ochiqligi va demokratik mohiyatini zaiflashtirishi mumkin.

G'arb ilmiy adabiyotlarida esa E. Bernays, N. Chomsky, M. McCombs va D. Shaw ishlari muhim ahamiyatga ega. E. Bernays propaganda va jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmlarini ilk bor ilmiy asosda yoritgan bo'lsa, Chomsky ommaviy



axborot vositalarining siyosiy manipulyatsiyadagi rolini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Noam Chomsky siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalari haqidagi qarashlari bilan tanilgan bo‘lib, uning eng mashhur konsepsiyalaridan biri - “propaganda modeli” hisoblanadi. Bu modelga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari jamiyatga to‘liq neytral va xolis axborot yetkazuvchi institut emas, balki ma’lum iqtisodiy va siyosiy kuchlar ta’sirida shakllanadigan tizimdir. Shaxsiy fikrimcha, Chomsky yondashuvi siyosiy kommunikatsiyada axborot-psixologik xavfsizlik masalasini tushunishda juda muhim tanqidiy asos beradi. Chunki u media orqali shakllanadigan “ob’ektiv haqiqat” har doim ham to‘liq neytral emasligini ko‘rsatadi. Bu esa fuqarolarning axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.[5]

Biroq, zamonaviy raqamli muhitda Chomsky modelini biroz kengaytirish kerak deb hisoblayman. Chunki bugungi kunda faqat yirik media emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, bloggerlar va algoritmik platformalar ham axborot oqimini shakllantirmoqda. Bu esa manipulyatsiya faqat “yuqoridan pastga” emas, balki tarmoqli va ko‘p yo‘nalishli bo‘lib qolganini anglatadi. Shu sababli, Chomsky konsepsiyasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda, lekin uni raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va axborot urushlari sharoitida qayta talqin qilish zarur. Bu esa siyosiy kommunikatsiyada axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash uchun tanqidiy media savodxonlikni yanada kuchaytirish kerakligini ko‘rsatadi.

Maxwell McCombsning eng mashhur ilmiy qarashi - “agenda-setting” (kun tartibini belgilash) nazariyasi bo‘lib, u siyosiy kommunikatsiyada ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta’sirini tushuntirib beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, media odamlarning “nima haqida o‘ylashini” emas, balki “nimani muhim deb bilishini” shakllantiradi. Ya’ni axborot vositalari muammolarning ahamiyat darajasini belgilab berish orqali jamoatchilik e’tiborini yo‘naltiradi. Shaxsiy fikrimcha, McCombsning ushbu yondashuvi siyosiy kommunikatsiya jarayonlarini tushunishda juda muhim,





chunki u axborot oqimining bevosita manipulyatsiyasidan ko'ra, bilvosita ta'sir mexanizmini ochib beradi. Bugungi axborot jamiyatida odamlar ko'p hollarda barcha voqealarni emas, balki media eng ko'p yoritgan masalalarni "dolzarb" deb qabul qiladi. Bu esa siyosiy kun tartibining shakllanishida ommaviy axborot vositalarining rolini juda kuchli qilib qo'yadi.[6]

Biroq zamonaviy raqamli muhitda bu nazariya yanada murakkablashgan. Avvallari kun tartibini asosan yirik telekanallar va gazeta tahririyatlari belgilagan bo'lsa, hozir ijtimoiy tarmoqlar, algoritmlar va blogerlar ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Natijada "kun tartibi" yagona markazdan emas, balki ko'p manbali va fragmentlashgan shaklda yuzaga kelmoqda.

Shu jihatdan, McCombs nazariyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, raqamli media sharoitida yanada kengaytirilgan talqinni talab qiladi. Ayniqsa, axborot-psixologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan qaraganda, kun tartibini kim va qanday shakllantirayotgani jamiyat ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan bu fuqarolarning media savodxonligi ham sa'lbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash muammosini o'rganishda tizimli, kompleks va interdisipliner yondashuvga asoslandi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va ijtimoiy psixologiya fanlari integratsiyasi tanlandi. Tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy metodlari sifatida tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va qiyoslash metodlari qo'llanildi. Tahlil metodi orqali siyosiy kommunikatsiya jarayonlarining tarkibiy elementlari ajratib o'rganildi, sintez metodi orqali esa olingan natijalar umumlashtirildi. Induksiya va deduksiya metodlari orqali xususiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarildi va umumiy nazariy qoidalar asosida alohida holatlar izohlandi. Qiyoslash metodi yordamida o'zbek va xorijiy ilmiy yondashuvlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlandi. Maxsus metodlar sifatida kommunikativ tahlil, diskurs tahlili va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Kommunikativ tahlil siyosiy axborot almashinuvi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishga xizmat qildi. Diskurs tahlili siyosiy matnlar va nutqlarda qo'llaniladigan lingvistik vositalar, emotsional ifodalar va manipulyativ strategiyalarni aniqlash imkonini berdi. Kontent-tahlil esa ommaviy axborot vositalaridagi siyosiy materiallarning mazmuniy yo'nalishlari va psixologik ta'sir darajasini baholashga yordam berdi. Psixologik yondashuv asosida axborotning shaxs ongiga ta'sir mexanizmlari, emotsional qabul qilish xususiyatlari va axborotga nisbatan himoya reaksiyalari o'rganildi. Sotsiologik kuzatuv elementlari orqali jamiyatda siyosiy axborotlarni qabul qilish tendensiyalari va yoshlar auditoriyasining axborot savodxonligi darajasi tahlil qilindi. Tadqiqotda interdisipliner yondashuv qo'llanilib, siyosiy kommunikatsiya, psixologiya va axborot xavfsizligi sohalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi, bu esa muammoni kompleks o'rganish va aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi nazariy manbalar, zamonaviy axborot muhitidagi jarayonlar va amaliy kuzatuvlar asosida chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda siyosiy kommunikatsiya faqat axborot uzatish jarayoni emas, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi murakkab psixologik va ijtimoiy mexanizmga aylangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikka bevosita ta'sir qiluvchi bir nechta asosiy omillar mavjudligi aniqlandi. Birinchi omil sifatida axborot oqimining haddan tashqari ko'payishi va uning nazoratsiz tarqalishi qayd etildi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi natijasida har bir foydalanuvchi axborot yaratuvchi subyektga aylangan bo'lib, bu holat axborot sifatini nazorat qilishni murakkablashtirmoqda. Natijada ishonchli va ishonchsiz ma'lumotlar bir xil tezlikda tarqalmoqda.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Ikkinchi muhim omil sifatida axborotning emotsional va manipulyativ shaklda taqdim etilishi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, siyosiy kontentlarning katta qismi auditoriyaning hissiyotiga ta'sir qilish orqali qabul qilinishga yo'naltirilgan. Bu esa ratsional tahlil jarayonini susaytirib, axborotni tanqidiy qabul qilish darajasini pasaytiradi.

Uchinchi omil sifatida foydalanuvchilarning axborot savodxonligi darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Ko'plab holatlarda axborot manbasi, uning maqsadi va ishonchliligi tekshirilmasdan qabul qilinadi. Bu esa noto'g'ri axborotning keng tarqalishiga va jamiyatda psixologik beqarorlikning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tahlil davomida yana shuni kuzatish mumkinki, raqamli platformalarda axborot algoritmik asosda foydalanuvchiga moslashtirib taqdim etiladi. Bu jarayon "axborot filtrlari"ni yuzaga keltirib, insonni faqat o'z qarashlariga mos ma'lumotlar bilan cheklab qo'yadi. Natijada turli fikrlar bilan tanishish imkoniyati kamayadi va axborot biryoqlama qabul qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda eng muhim yo'nalishlardan biri bu fuqarolarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash mavjud bo'lgan jamiyatda har qanday axborot avtomatik qabul qilinmaydi, balki u tahlil qilinadi, solishtiriladi va baholanadi. Bu esa manipulyativ axborot ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuningdek, natijalar shuni ko'rsatadiki, siyosiy kommunikatsiyada ochiqlik va shaffoflik tamoyili axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Faktlarga asoslangan, tushunarli va aniq axborot jamiyatda ishonchni oshiradi va noto'g'ri talqinlarning oldini oladi. Yana bir muhim natija sifatida axborot muhitini monitoring qilish va zararli kontentni aniqlash tizimlarining zarurligi aniqlandi. Chunki axborot oqimining tezligi yuqori bo'lgan sharoitda har qanday noto'g'ri ma'lumot juda qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetib borishi mumkin.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Umuman olganda, tadqiqot natijalari siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash kompleks yondashuvni talab qilishini tasdiqladi. Bu jarayonda axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, raqamli platformalarni tushunish, axborot monitoringini kuchaytirish va siyosiy kommunikatsiyada shaffoflikni ta'minlash asosiy amaliy mexanizmlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, olingan natijalar shuni ham ko'rsatadiki, zamonaviy axborot jamiyatida axborot-psixologik xavfsizlik faqat davlat yoki media tashkilotlari zimmasidagi vazifa emas, balki har bir fuqaroning shaxsiy mas'uliyati bilan ham bevosita bog'liqdir. Har bir inson axborotni tanlash, tahlil qilish va qabul qilish jarayonida faol va ongli pozitsiyada bo'lishi zarur.

Xulosa. Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda himoya tizimi faqatgina tashqi hujumlarni to'sishga emas, balki ichki barqarorlikni "adaptiv boshqarish"ga yo'naltirilishi lozim. Amaliy mexanizmlarni tahlil qilish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchi, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali yo'li - bu davlatning "kommunikativ yetakchiligi"ni o'rnatishidir. Ya'ni, davlat organlari axborotni shunchaki tarqatuvchi emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun tushunarli tilda "ma'no va mazmun yaratuvchi" markazga aylanishi kerak. Bu orqali aholida tashqi manipulyativ g'oyalarga nisbatan tabiiy mafkuraviy himoya qatlami hosil bo'ladi.

Ikkinchi, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi "dinamik huquqiy tartibga solish" modeliga o'tishni taqozo etadi. An'anaviy qonunchilik texnologik o'zgarishlardan ortda qolayotganini hisobga olib, axborot makonidagi xavf-xatarlarni operativ baholovchi va huquqiy yechimlarni tezkor moslashtiruvchi "Ekspert-huquqiy kengashlar" mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Bu mexanizm orqali kiber-





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

xurujlar va psixologik manipulyatsiyalarga qarshi qonuniy choralar real vaqt rejimida yangilanib boradi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, kognitiv xavfsizlikning asosi - bu shaxsning "media-gigiyena" madaniyatidir. Bu borada faqat ta'lim muassasalari bilan cheklanib qolmay, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida xodimlarning "axborotga qarshi immuniteti"ni sinovdan o'tkazuvchi muntazam kiber-mashqlar (cyber-drills) o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.

Xalqaro va milliy tajribaning sintezi shuni ko'rsatdiki, axborot-psixologik xavfsizlik - bu tugallangan holat emas, balki doimiy harakatdagi jarayondir. Maqolada taklif etilgan integral model nafaqat bugungi kiber-tahdidlarni jilovlashga, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan neyro-texnologik va chuqur manipulyativ (deep-level manipulation) xavflarning oldini olishga xizmat qiladi. Davlatning axborot suvereniteti va jamiyatning psixologik daxlsizligi -barqaror siyosiy kommunikatsiyaning o'zaro bog'liq ikki ustuni bo'lib qolishi shart.

G'arb olimlarining nazariyalari axborotning siyosiy va psixologik ta'sir mexanizmlarini ochib bersa, o'zbek tadqiqotchilarining qarashlari bu jarayonda jamiyat barqarorligi va axborot immunitetini shakllantirish zarurligini asoslaydi. Shu sababli axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xususan Abduazizov A.A. kabi tadqiqotchilar, kommunikatsiyaning lingvistik asoslari va uning psixologik ta'sirini yoritib beradi. Bu esa axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda ham mazmun, ham ifoda uslubi birdek muhim ekanini ko'rsatadi.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova Yo.M. Siyosiy diskurs va zamonaviy kommunikativ jarayonlarda axborot-psixologik ta'sir masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 156 b.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

2. Komilova G. Siyosiy diskursda lingvistik shaxs va uning emotsional-kommunikativ strategiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 132 b.
3. Usmonov S. O‘smirlar va yoshlar axborot-psixologik xavfsizligi muammolari. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2019. – 144 b.
4. Habermas J. Strukturwandel der Öffentlichkeit (The Structural Transformation of the Public Sphere). – Cambridge: Polity Press, 1989. – 301 b.
5. Chomsky N., Herman E.S. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. – New York: Pantheon Books, 1988. – 412 b.
6. McCombs M., Shaw D. The Agenda-Setting Function of Mass Media. – Public Opinion Quarterly, 1972. – Vol. 36(2). – P. 176–187.
7. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasi va kommunikativ yondashuvlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 220 b.

